

## O‘TKIR HOSHIMOV HAJVIYA (HAJVIY QISSA VA HAJVIY HIKOYA)LARIDA MILLIY PORTRET TAJASSUMI

*Xayriyeva Nargiza Ixtiyor qizi*

*Buxoro davlat universiteti*

*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** maqolada O‘tkir Hoshimovning hajviy qissa va hikoyalarda o‘zbekona ruh, obrazlarning o‘ziga xos tashqi ko‘rinishi, milliylik kasb etgan xatti-harakatlar vositasida milliy koloritning milliy portretidagi tajassumi tahlil va talqin qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** hikoya, qissa, hajv, kolorit, portret, milliy portret, adabiy portret, personaj, obraz, xarakter, tip.

**KIRISH.** Asrlar osha o‘zbekchilikning yozilgan va yozilmagan qoidalarini eslatib turuvchi jihatlar O‘tkir Hoshimov asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, milliy portret ko‘rinishlari ustunligi seziladi.

Respublikamizda mustaqillik yillarida milliylikni saqalab qolish va yanada rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, Namanganda har yili o‘tkaziladigan “Gullar festivali”, Shashrisabzdagi maqom festivali, osh va milliy taomlar tayyorlash tadbirlari, 2024-yilning 3-5-may kunlari Buxoroda II Xalqaro zargarlik va zardo‘zlik festivali (dastlabkisi 2022-yil 21-25-mayda), 1961-yildan beri Namangandagi Xalqaro gullar festivali (2024-yil 19-maydan 23-iyungacha qadar davom etgan 63-soni) shular jumlasidandir. Shuningdek, 2022-yildan buyon YUNESKO shafeligida ikki yilda bir marta o‘tkazib kelinayotgan “Lazgi” xalqaro raqs festivali “Lazgi” atalmish milliylikimizning dunyo hamjamiyatida ham tan olinishini kafolatladir. Bunday tadbirning ikkinchisi Xivada 2024-yil 25-30-aprel kunlari bo‘lib o‘tdi. Yana 1997-yildan buyon har ikki yilda Samarqandda YUNESKO va AYSEKO shafeligida tashkil etilayotgan “Sharq taronlari” festivali butun dunyo maqom

ixlosmandlarini jam qilmoqda. 2019-yil 26-30- avgustda ushbu tadbirning XII, 2024-yil ayni shu sanalarda esa XIII Xalqaro musiqa festivali o'tkazildi. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, milliy madaniyat va san'atni asrash, yoshlarni tarixiy merosga qiziqtirish, milliy ta'lim tizimi, ona tilini targ'ib qilish kabi dolzarb masalalar bunday ijodiy ishlar ko'lamini oshirishga undaydi. Bu jarayonda nosir asarlari madaniy-ma'naviy meros sifatida muhim manba bo'la oladi.

### ASOSIY QISM

Adib asarlarida milliy portretni aks ettirishda Shukur Xolmirzayev, Tog'ay Murod, Said Ahmad asarlaridagi kabi chuqur psixologizm va realistik tasvir ustunligi seziladi. Yozuvchining katta-yu kichik asarlarida milliylik va xalq xarakteri tasviri oddiy kishilarning quvonch-u shodliklari, tashvish-u g'amlari, orzu-intilishlari orqali namoyon bo'ladi. Xususan, "Ikki eshik orasi" romani, "Dunyoning ishlari" qissasida mehmondo'st va bag'rikeng xalq hayoti tasvirlangan, o'zbeklarning umummilliy obrazi oddiy, beg'ubor, jaydari kishilar vositasida gavdalandiriladi. Mahalliy hayot va urf-odatlar to'y-marosimlar, kishilar orasidagi samimiy muloqot, an'ana, urf-odatlar keng tasvirlanadi. Chunonchi, "Ikki eshik orasi"dagi Shomurod va Ra'no, keyinchalik Robiyalarning to'yi tasvirida, "O'zbeklar" hikoyasida Iskandar volidasining motam marosimida, "Nega? Nega?" hikoyasida Hamidulla va ayolining o'g'lini uylantirish orzu-umidlari tasvirlangan lavhalarda, "Umr savdosi" hikoyasida To'lqinjonni uyli-joyli (boshini ikkita qilish) borasidagi "umr savdosi"-yu opasi Xolidani turmushi bilan bog'liq armonlarida yoki "Xotam-xasisning xazinasini" hikoyasidagi beshikto'y bilan bog'liq marosim-ma'rakalarda, "shumliklar" rukni ostidagi "To'yona" operatsiyasi"da bu jihatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Nosir ijodida, shuningdek, psixologik tahlil va ichki dunyo tasviri nihoyatda keng o'rin egallaydi. Kichik hikoyadan, salmoqli romangacha bunday tahlil va tasvirlar kitobxonni o'zgacha bir dunyoga olib kirib, personajlar bilan quvonish-u g'am chekishga undaydi. Darhaqiqat, siz Qurbonoy xola, Rustam, Shahnozalar bilan

birga yig‘lab, Qo‘shoqvoy va Shodivoy bilan birgalikda kulasiz. Asar yakuniga yetsa, suhbatdosh do‘stingiz, yaqiningizdan ayrilgan kabi xafalanasiz.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘tkir Hoshimov asarlarida hajv turli insoniy nuqsonlar, ijtimoiy muammolar, hayotdagi achchiq haqiqatlarni yengilroq, lekin o‘z nomiga mos tarzda o‘tkirroq taftish etish, baholash, yechim berish vositasi sifatida ishlatiladi. Muallif ijodida, ayniqsa, ustoz Abdulla Qahhor hamda Said Ahmaddan ta’sirlanish seziladi. Odamlarga xos kamchiliklarni yengil kulgi ostiga olish, qahramonlar orqali ijtimoiy muammolarni ko‘rsatish uchun suhbat va voqealar rivojidadagi hajviy yondashuv mavjud. Chunonchi, “Ikki eshik orasi” romanida frontorti voqealar, hammaning birdek og‘ir va mashaqqatli mehnatga jalb etilishi, jamoadagi muhit suhbat, bahs va tortishuvlarda hajvning berilishi jamiyatdagi turli illatlar, tuzumning jirkanchliklari, uning yomon oqibatlar ustidan kuladi. Buni, ayniqsa Parcha opa, Rashid abzi, Umar zakunchi kabi personajlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, “Dunyoning ishlari” qissasida odamlar xarakteridagi arziyas tuyilgan nuqsonlar hajvga olinib, ular ortidan katta yo‘qotishlar yuz berishi mumkinligi Toy, Xo‘ja, Vali, Acha xola, sepkilli kelinoyi, Naim sartarosh kabi obrazlar misolida ko‘rsatilgan. Hajviy yo‘nalishdagi “Ikki karra ikki – besh” qissasi esa hajvning yorqin namunasidir. Asar nomidan uning yo‘nalishi sezilib turibdi. Aslida yumordek taassurot qoldirsa-da, qissada satirik kulgi ustuvorlik qiladi. Qallob va ayyor, yebto‘ymas raislar qo‘lida ming ko‘yga tushadigan oddiy insonlar taqdiri hajv vositasida, ayniqsa Qo‘shoqvoy obrazi orqali ochib berilgan. Qissada Tursunboy aka va uning ayoli, Shodivoy, Nargis kabi qahramonlar hajvga olingan muammolar va ularning yechimida muhim o‘ringa ega.

Yozuvchi hajviyalari ichida, ayniqsa “Ikki karra ikki– besh” qissasining o‘rni beqiyos. Bunda hayot haqiqati kulgi vositasida ochib beriladi. Bu holat adib ijod olamidagi satirik kulgining ajoyib namunasi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Janriy xususiyatlariga ko‘ra asar qissa sanalsa-da, hajvi yuqori bo‘lganligi, satira qissaning muhim xususiyatiga aylangani sababidan hajviyalari qatorida tilga

oldik. Xossatan hajvga yo‘g‘rilgan, milliylik bo‘y ko‘rsatgan quyidagi misollarni ko‘rib o‘tsak:

“Qarasam, bashang kiyinib olgan o‘zim tengi bola yong‘oqqa kesak otyapti. Shunaqangi do‘mboq, shunaqangi dumaloq bolaki, xo‘ppa semiz quyonga o‘xshaydi”[1.191].

Ismlardagi qisqartma va laqablar borasida “Ikki karra ikki–besh” qissasida Qo‘shoqvoyning “... To‘ydan keyin mening bitta akam, yana bitta opam tug‘ilibdi-yu, akam chillasi chiqmay, opam yoshiga yetmay o‘libdi bechora. Shuning uchun “Qo‘sha-qo‘sha farzand ko‘raylik”, degan niyatda bizga Qo‘shoqvoy deb ot qo‘yishgan ekan. Bolani yaxshi ko‘rgani uchun dadam bizni urishmas ekan” [1.194].

“Qo‘sho”, “Qo‘shoq”; singlisi Mavjudani “Mavju”, “Movju”, “Ju”; Shodivoyni “Shodi”; Ferma tog‘a, “Qora ko‘zoynak”; brigadir To‘lash aka, mehmonxona xodimasi Gulichka, “Muxa” opaning dugonasi Lyolya; operator Kolya, taxtapullik Hayitboy sariq, chuvalachilik Mirvaqqos qatiqchi, Xoliq tajang; sartarosh Sobit cho‘loq (sartarosh obrazi “Dunyoning ishlari”da ikki o‘rinda “Po‘stdumbali moshkichiri”da Naim sartarosh hamda “Sovchilar” hikoyasidagi sartarosh); rais “domlacha” deguvchi o‘qituvchi... singari qisqartma ismlar, izohlovchi yoki aniqlovchisi bilan aytiladigan nomlar, laqablar orqali hajv yanada yorqinroq yuzaga chiqadi. Kasb-kor jihatdan dastlab rais bilan gapi qochgunga qadar Qo‘shoqvoyning dadasi Salim aka – buxgalter, qo‘shnisi Tursunboy aka – traktorchi, Oysara opa – kolxoz kutubxonasi ishchisi, raisning qon-qarindoshlari, Qo‘shoqvoyning tili bilan aytganda, “Bizning “Mash‘al” kolxozimizda tekinxo‘rlar yo‘q. Hamma ishlaydi. Rais buvaning jiyani tomorqasida ketmon chopadi. Kuyovi hisobchilik qiladi. Yana bittta kuyovi–agronom. Kenja kuyovi–iqtisodchi. Qaynisi–do‘konda atir-upa sotadi... Bular – erkaklar. Ayollarning yarmisi dalada, yarmisi–uyida. Nega deysizmi? Ayol bo‘lgandan keyinb tug‘ishi kerakmi, axir? Masalan, bizning qishloqda o‘ttiz bitta Qahramon ona bor. Bitta bolasini tug‘ishi bilan ikkinchisiga tayyorgarlikni boshlab yuboradi...” [1.245].

Bu aslida Qo‘shoqvoyning o‘y-fikrlari emas, butun jamiyatning muammosi edi. Chunki rais buvaga o‘xshagan o‘zi va yaqinlari hamyoni to‘lishi uchun oddiy xalq vakillari mehnatidan foydalanishi; ayolni ojiz sanab, kimningdir ixtiyoridagi matoh sifatida bepisand munosabatda bo‘lish, faqat uy ishlari, erining bo‘l desa bo‘lib, o‘l desa, o‘ladigan, tug‘ish uchun yaratilgan “inkubator” sifatida qarash o‘sha davrning ham, kerak bo‘lsa bugunning ham dolzarb muammosidir. Bunda bola va ona sog‘ligi ham muhim. Bir qishloqda o‘ttiz bitta “Qahramon ona” borligidan sezish mumkinki, onalarning tinmay tug‘averishi, bolalarning paydar-pay dunyoga kelishi bu ikki jonning ham sog‘ligi yetarli darajada yaxshi bo‘lmasligi, natijada nuqsoni bor bolalar tug‘ilishi, onalarning ham yarimjon bo‘lib qolish ehtimolini oshiradi. Hozirda har tug‘ruq orasi kamida besh yil bo‘lishi kerakligi haqidagi talablar to‘g‘ri qo‘yilgan. Chunki yuqoridagi kabi yilida ikki bola (yil boshi va yil oxirida) tug‘ilish hollari ham kuzatilgan va ona-bola sog‘ligi xafv ostida qolib ketavergan. Qissada o‘qituvchi shaxsiga bepisandlik qilayotgan rais va uning hamtovoqlari “Amper qonuni”ni “Kampir qonuni” deydigan darajada savodsiz-u, ammo halol ishlaydigan muallimni “domlojon” deya o‘z yo‘rig‘iga yurgizishni istagani, bunga amal qilmaganlarni osongina “dumini tugib” qo‘yishi xuddiki, eshak dumiga bog‘lab qo‘yilgan tuya jiloviga o‘xshaydi. Asarda fizika o‘qituvchisi Qo‘chqorov Usmon, matematika muallimi Ikromova Muhabbatdek vijdoniga qarshi bormaydigan haqiqiy ustozlar, to‘qqizta qizi bor mehribon adabiyot o‘qituvchisi, shuningdek, Shodivoy va Qo‘shoqvoyning o‘qishga kirgizishga bel bog‘lagan “kattakon”larning kasriga bechoralarning sho‘rini quritadigan “katta domla” va shu domlasining yuzidan o‘tolmay hamma ishni “to‘g‘irlyadigan” hamtovog‘i Begmatov kabi “ta‘lim fidoyilari” ham bor.

O‘zbek xalqiga xos so‘kish-qarg‘ishlarga mansub “xalq og‘zaki ijod namunalari” ni ham topish mumkin. Xuysusan, Qo‘shoqvoy to‘g‘risida yolg‘on-yashiq aralash ko‘zbo‘yamachilik bilan yozilib, gazetada chiqqan maqoladan hayratlangan Qo‘shoqvoy “qiztaloq” [1.286] deya muxbirlarga qarata ulardan

hayratda ekanini bildiradi. Rais tilidan esa haqorat ma'nosidagi "ukkg'ar", "qizzig'ar" kabi noodatiy so'kish so'zlar keltiriladi.

Maqol, kinoya, iboralar ham personajlar nutqini yana tabiiy va ishonchli chiqishini kafolatlagan: "Maqtagan Xudoga yoqibdi" [1.286], "Bo'yingga qarab to'n bich", "Teng – tengi bilan..." [313], "Notavon ko'ngilga qo'tir jomashov" [327], "Uzatgan oyog'ingizni yig'may qo'yaqoling" [327].

Asarda shuningdek, milliy urf-odatlardan qalliq o'yini Qo'shoqvoy va Nargisxon misolida namoyon bo'ladi.

Yozuvchining ustoz Said Ahmad tilidan aytilgan "Tabassunga moyil gaplar" turkumiga mansub xotiralardan birida boshqa kishini qopidan o'z qopiga un solayotgan kishi tasviri mavjudki, bu voqea qissada latifa tarzida beriladi.

Ism, otatism, familiya borasida so'z borar ekan, bu muhim jihatlar milliylik ichida o'rganilishi lozimligi anglashiladi. O'sha davrda yaratilgan ko'plab asarlar qatori ushbu hajviy qissaada ham otatismni familiya o'rnida ishlatishni va boshqacha bobosining nomini familiya sifatida qo'llashni ham kuzatamiz. Chunonchi, Qo'shoqvoy otatismi familiya vazifasida – Qo'shoqvoy Salimov (Salimovich), ammo bir o'rinda Ortiqov [1.286]; o'rtog'i, ya'ni raisning o'g'li Alimov Shodivoy esa bobosi nomida, ya'ni Alimov Shodivoy Toshmamatovich tarzida berilgan. Aslida-ku, Erkin A'zam Oyina nashriga bergan intervyusida ta'klidlaganidek, -ov, -ye, -ova, -yeva, -yevna, -vich(-ovich, -yevich) kabi tilimizga yot bo'lgan qo'shimchalar bizning asl ism, otatism va bobomiz nomiga oid atoqli otlarga mos kelmaydi. Asr qahramonlariga moslasak, Qo'shoqvoy Ortiq, Shodivoy Alim, Muhabbat Ikrom, Usmon Qo'chqor tarzida bo'lishi kerak edi. Avvalo turkiy xalqlar, so'ng milliylikimizga aloqador ushbu muhim jihat shakl tugul, mazmunga ham ta'sir qilmay qolmagan. Ya'ni odamlar ism va familiyalaridagi yuqoridagi kabi "nufuzli" kiritmalar obro' va mansablarini ifodalashga xizmat qilayotganiga ishonib qolishgan. XX asr boshidagi Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniyga o'xshash ismlar qayda qoldi. Yozuvchi yoki shoirlarimiz bekorga o'zlariga Abdulla qahhor, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Po'lat Mo'min,

Qudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shavkat Rahmon, Rauf Parfi, Omon Matjon, Usmon Azim, Erkin A'zam, Xurshid Davron, Xurshid Do'stmuhammad, Said Ahmad, Tohir Malik, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol mirzo, Miraziz A'zam, Akrom Malik deya haqiqiy o'zbekona, turkona ruh bilan ijod qilishmagan ekan.

Pedagog borasida “O'qituvchi opamiz ikkilanib qoldi. Men oldinda o'tirsam, boshqalar doskani ko'rmaydi, Shodivoy orqaga o'tsa, u hech nimani ko'rolmay qoladi” [1.197].

Shodivoyni, raisning o'g'lini orqaga o'tqazib bo'ladimi? Eh, o'qituvchilargayam qiyin, shunday ikir-chikirlar sabab asosiy mezon – dars degan muqaddas jarayon qolib ketadi-da! Dars mobaynida doim xato javob berib kelgan Qo'shoqvoy direktor va matematika o'qituvchisini oldida bemalol hisob-kitob qiladi. “O'qituvchi opamning rangi quv o'chib ketdi. Direktorimizning ichidagi tarvuzlar bir-biriga paydar-pay urila boshladi, shekilli, qorni o'z-o'zidan lapillab ketdi” [1.201]. Nega rais-u direktorlarning hammasi shunaqa semiz., yebto'ymaydiganday tasvirlanar ekan. Bu o'sha davr talabimi? Nima raislarning orig'i-yu, direktorlarning kichik gavdalisi bo'lsa, so'zi o'tmay qoladimi, yo ularning halol luqma yemasligiga ishorami bu?

“Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq” deganlaridek, inson yashayotgan zamona ta'siridan chetda yashay olmaydi. Chunki jamiyatdan uzoqlashish, ijtimoiy-maishiy turmushdan chetlashi adabiyotning ham ijtimoiylik xususiyatini yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Ishchi-dehqon obrazining takror qalamga olinishi; boylar, xususan, raislarning hamisha ochko'z kimsa tarzida tasvirlanishi “talab etilayotgan” davrda bu qolipdan chiqishning imkoni kam edi. Chunonchi, Tohir Malikning “Charxpalak”da olg'ir va razil rais To'xtamish; “Murdalar gapirmaydilar” qissasida hoy-u havasga berilgan va shu sabab sovuq o'lkalarga surgun qilingan sovxoz direktori Tursunali; “Jimjitlik” romanida o'zgalar hayoti va mehnati qadrini bilmaydigan va ularni bir chaqaga olmaydigan Mirvali; O'lmas Umarbekovning “Fotima va Zuhra” romanida qallob rais Teshaboy aka singari xalqning qonini so'ruvchi munofiq kimsalarni

uchratamiz. Faqat O‘tkir Hoshimovning “O‘zbek ishi” hikoyasidagi Jumanov, Shuhratning “Oltin zanglamas” romanida rais insofli va diyonatli tarzda tasvirlangan, Qodir va Sodiqlarning otasi bo‘lgan bu kishi yemagan somsasi uchun pul to‘laganlardan biri.

**Hajviy hikoyalar.** O‘tkir Hoshimov hikoyachiligining alohida bir yo‘nalishi hamda salmoqli qismini tashkil etuvchi hajviy hikoyalar “Tabassumga moyil gaplar” turkumidan hajman salmoqli, mavzu va g‘oyasi keng, chuqurroq bo‘lgani, oddiy hikoyalarga qaraganda hajvi yuqoriligi, kerak bo‘lsa, har jumlada hajv va kulgi mavjudligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, biroz uyatli gaplar ham ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, real voqealarga asoslangan “Amerikaga sayohat” (Ustoz Said Ahmadning Amerikadan kelgan kuni telefonda aytib bergan hangomasi) hikoyasida ustoz Said Ahmad stuardessani ta’riflayotganda, basseyndagi qizlar ta’rifida kuzatishimiz mumkin: “Boing” osmonga ko‘tarilishi bilan yonimga qoshlari ipdekkina, sochlari tilla kokildek, oyoqlari uzun-uzun, tizzasidan ikki qarich balandda to‘xtab qolgan etak ostidan oppoqqina sonlari ko‘rinib turgan xonimcha keldi. Og‘izchasi angishvonadek. Lablari xuddi gilos tishlab turganga o‘xshaydi. Odamning allaqayerini qizitib yuboradigan mayingina, sirligina tabassum hadya etdi” [1.196]. Yuqoridagi parchada ta’riflanayotgan go‘zal o‘zbek emasligi aniq. Chunki “xonimcha”ning erkakning shahvatini qo‘zg‘aydigan darajada jilmayib qo‘yishi o‘zbek qizi yoki o‘zbek ayoliman, deganning xususiyatiga kirmaydi. “Basseyn o‘rtasida ikkita suv parisi suzib yuribdi. Koshinlangan qirg‘oqda tag‘in ikkitasi o‘tiribdi. Ikkitasining sochi malla, ikkitasiniki qop-qora. Rostini aytsam, umrim bino bo‘lib bunaqangi pari-paykarlarni birinchi ko‘rishim! Mening o‘rnimda Chingiz Axmarov bo‘lsa, bir zumda “Amerika madonnasi” degan portret chizib tashlagan bo‘lardi. Mikelanjelo tirilib kelsa, shularning haykalini yasardi. Oq marmardan! Shunaqangi mukammal, shunaqangi “figurniy”ki, Umar Xayyomning chikkabel ko‘zasi bularning oldida xumdek gap! Yo‘q, bular odam bolasi emas, haqiqiy suv parisi! Hushyor bo‘lmasang, afsun qilib suv tagiga tortib ketadi! Ana bittasi “kelaver” deb imo qilyapti. Kaftimni peshanamga soyabon qilib tikilib qarasam,



dumi yo‘q!(Suv parisida dum bo‘lardi, shekilli?). Endi imlaysanmi, noinsof! Aqalli o‘n-o‘n besh yil avval qayoqda eding?! Basseyn tugul dengizingning tubiga ham birgalashib tushib ketaverardim!...

Tarjimonning ikki ko‘zi parilarda. Charviga tikilgan mushuknikiga o‘xshab yiltirab turibdi” [1.200].

Hikoyada ustoz Said Ahmadning nihoyatda zukko va topqirligi, vaziyatga ko‘ra yo‘l topa bilish qobiliyati ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, samolyotda ko‘rgan “sap-sariq” kishini Nozir Fozilovaga o‘xshatishi, aslida u taxtapullik Hayitboy sariqning nevarasiligini darrov payqashi, uchuvchiniyam avvaliga “akkuratniy”ligini ko‘rib Umarali Normatovga mengzab, keyin chuvalachilik Mirvaqqos qatiqchining o‘g‘li ekanligini bilishi o‘zbeklarning har joydan boxabar, odamsevar, to‘y-u azada birdam, qarindosh-u qo‘shnilarga hamdam, yetti yot begonaniyam taniydigan hamisha uyg‘oq va hushyorligidan dalolatdir. Ayniqsa yozuvchi zoti ancha sinchkov, e‘tiborli, xuddi ustoz Said Ahmaddek samolyotda ham “bittada” taniydigan bo‘ladi. Voqea Said Ahmaddek kulgi ustasi tilidan bayon qilingani uchunmi, yolg‘on-rost aralash, yarim hazil, yarmi chin bo‘lib tuyiladi odamga. Binobarin, AQSHdagi “Ozodlik haykali”ning ustozga egilib uch marta salom berishini, “o‘ziyam chimildiqdan yangi chiqib, qaynatasiga salom qilayotgan kelinchakka” o‘xshatilishi to‘y-u marakani sevuvchi va shularga borini sarf etuvchi o‘zbeklarning kelinning kuyov uyidagi hayotini tasvirlagandek go‘yo. “...Ie, shoshmay tur, bolam, bog‘ eshigi ochildi, shekilli. Ana, oq “Neksiya” kirib kelyapti. Kim bo‘ldi bu? Mashinaning chap eshigidan GAIning tayog‘iga o‘xshagan burun chiqib turibdi. Ie, Anvar Obidjonku!” [1.202] deya kasbdosh do‘stlari bilan doim samimiyatda, xushchaqchaqlikda davra quradigan ajib ustoz tilidan qaynoq portretlar ham mavjud.

“Osh” hajviy hikoyasida o‘zbekning urf-odat, to‘y-hashami bilan bog‘liq milliy koloritning o‘zgacha ko‘rinishini kuzatamiz. Bunda har qanday an`ana yoki odatning oz chegarasi, me‘yori bo‘lishi, har qanday milliylik deb baholanuvchi xususiyatlar ijobiy tomoni bilan birga salbiy tomonlarga egaligi insonlarning o‘zi ham tanimaydigan, yetti yot begonalarining to‘y-ma`rakasiga, aytilgan-

aytilmagan joyga kirib boraverishi “Osh”ning haqiqiy qiymati yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Shunga ko‘ra “Aytilgan joyga bor, aytilmagan joyga nima bor?” Yoki “aytmas joyga borma, aytar joydan qolma” deydi dono xalqimiz. Lekin oramizda yettinchi avlodi ham tutash bo‘lmagan, hech kim aytmagan marosimga ham bezbetlarcha boraveradigalar bor. Ular qo‘shnilarini hikoyadagi kabi sudrab etgudek yetaklab ketishadi, agar bir-ikki marakada birov ko‘rinmay qolsa, “dovrug‘talab”lar fikricha ular “kekkaygan”, “baland oxurdan ovqat yeydigan”, odamovi deb nom chiqaradilar. Hikoyada Xoliq tajang kabi “bekorchilar” o‘zgalar sharoiti, jismoniy yoki aqliy mehnat bilan band kishilarning vaqti hisob-kitobli ekanligi bilan ishi yo‘q. Hikoya bosh qahramoni yangi mahallaga ko‘chib kelganiga bir oy bo‘lgan professor Obid Rasulevich o‘z ilmiy ishlari bilan band odam. “Oshxo‘r” qo‘shnisi Xoliq tajangning uzooooooooq qarindoshining qarindoshi bo‘lgan yoki bo‘lmagan kishiniyam to‘y-u marakasiga hozir-u nozir edi. “Yunusobodlik Husanboy polvonning o‘g‘li Nortoy kimligi-yu, qanaqa to‘y qilayotganini tafsiloti bilan aytadi: “Qoratoshdagi hammomning xodimgari bor-ku, xotini uch marta ketma-ket Hasan-Husan tuqqan...Shariat bo‘yicha er-xotin qaytadan nikoh o‘qitishgan... Shu Nortoy deng, bir ko‘zida aybi bo‘lsayam xo‘p ishning ko‘zini biladigan odam-da!... Uchta to‘yni qo‘shib o‘tkazyapti, deng. Ham ota-onasining “kumush to‘yini qilyapti, ham beva qaynisinglisini erga beryapti, ham o‘rtancha o‘g‘lini sunnat qilyapti” [1.204]. Xoliq tajang uchun “tiq” degan yovush yetarli, u doim xalq xizmatiga shay “muhim” odam. Hatto tomog‘iga suyak tiqilib o‘lgan xotining yigirmasigayam osh beruvchi Qo‘chqor qassobning ma‘rakasi ham usiz o‘tmaydigandek.Yana bir o‘rinda Jizzaxga ko‘chib ketgan bir vaqtlardagi qadrton qo‘shnining ham to‘yiga borishga tayyor Xoliq tajang to‘ychining to‘qqiz qizi borligi-yu, bu oxirgi supraqoqdisining to‘yi ekanini aytadi. O‘zbeklar shunday dono xalq-da, to‘yni qo‘shaloq qilishadi: nikoh va sunnat to‘ylarinimi, muchal-u nikoh, yubiley-u payg‘ambar yoshlarinimi yo urf bo‘lib urgurgan umra va haj to‘ylarini ham o‘tkazib qo‘yaqolishadi. Pul ko‘p-da! O‘zbeklar umr bo‘yi topgan-tutganini, kerak bo‘lsa qirq-ellik yillab yig‘ib-yig‘ishtirganini bir kunda sarf qilishdan qo‘rqmaydigan, “og‘rigan beli”ga, o‘tgan

umri-yu mehnatiga achinmaydigan xalq-da. Ana milliylik-u, mana milliylik. Shu o‘rinda ustoz Erkin Vohidovning nazmiy gulshanida “oshxo‘rlik”ning o‘zbeklar va yaponlar bilan bog‘lab yozgan satrlarini eslaganda haqiqatni aytganligiga imon keltiramiz:

**Nega yapon yuz yil yashar...**

Nega yapon yuz yil yashar-u  
 O‘zbek buncha yoshga bormaydi?  
 Chunki yapon bizdek qorong‘u  
 Sahar turib oshga bormaydi.  
 Motamida u obro‘ uchun  
 Elni chorlab ziyofat qurmas.  
 Bayramida bel bog‘lab uch kun  
 Shamdek qotib ko‘chada turmas.  
 Garchi bizdan yuz bor farovon,  
 Garchi bizdan yuz karra to‘qdir.  
 To‘y xarjida yuzta boy yapon  
 Bir kambag‘al o‘zbekcha yo‘qdir.  
 Bu so‘zimni yaponga aytsam  
 Dedi battar qisib ko‘zini:  
 Yapon bundoq yasholmas hech ham,  
 Xarakiri qilar o‘zini.

**XULOSA**

O‘. Hoshimovning hajvga boy asarlari faqatgina o‘quvchini kuldirish uchun emas, balki hayot haqida chuqurroq mulohaza qilishga undaydi. Hajv uning asarlarida insoniylik g‘oyalari va ijtimoiy adolat mavzularini teranroq tushunishga xizmat qiladi. Bolalarga xos kulgi adibning “Dunyoning ishlari”, “Ikki karra ikki – besh” qissalarida yaqqol seziladi. Bolalar adabiyotiga ham xizmati beqiyos bu ijodkor Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Shirin qovunlar mamlakati”, “Quyvonlar saltanati” yoki Anvar Obidjonning “Oltin yurakli avtobola”, “Meshpolvonning sarguzashtlari”

kabi hajvga boy asarlar qatorida bolalar adabiyoti rivojiga ham sezilarli hissa bo‘lib qo‘shiladi. Hajvga boy hikoyalarda esa asosan, katta yoshli kishilar hayotidagi ajoyibotlardan hikoya qiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Tanlangan asarlar: II jild: qissalar, hikoyalar, hajviyalar, o‘ylar. – T.: Sharq, 2009. – 448 b.)
2. O‘zbeklar: Hikoyalar, o‘ylar, hajviyalar/ O‘tkir Hoshimov. – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 286 b.
3. Hurkitilgan tush. [Matn]:hikoyalar/ O‘. Hoshimov. –T.: “Ziyo nashr”, 2019. – 160 b.
4. Hikoyada so‘nggi jumlaning poetik vazifasi/ R.Hamrayev// Til va adabiyot ta’limi. – 2020. – N 6. – B. 24-25.
5. Hozirgi hikoyalarda ayol ruhiyati talqini/ G.S attorova. – T.: O‘zbek tili va adabiyoti, 2020-yil, 6-son. – 46-51-bet.